

GIPOTETIK-DEDUKTIV METOD ORQALI BO'LAJAK PEDAGOGLARDA ANALITIK TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATION-PEDAGOGIK TIZIMI

ИННОВАЦИОННО-ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ СИСТЕМА РАЗВИТИЯ АНАЛИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ ЧЕРЕЗ ГИПОТЕТИКО-ДЕДУКТИВНЫЙ МЕТОД

INNOVATION-PEDAGOGICAL SYSTEM FOR THE DEVELOPMENT OF ANALYTICAL THINKING IN FUTURE EDUCATORS THROUGH THE HYPOTHETICAL-DEDUCTIVE METHOD

*Aliyev Nizomiddin Maxmasaitovich
Farg'onan davlat universiteti tadqiqotchisi*

Annotasiya: Ushbu maqolada bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlanirishning pedagogik mazmuni va asosiy yo'nalishlari, analitik tafakkurni rivojlanirishda dialektik uslubning ham samaradorligi yuqori hisoblanishi hamda pedagogik jarayonda tafakkur uslublarini mushtarak holda qo'llashga o'rnatish rivojlanirish to'g'risidagi fikr mulohazalar bayon qilingan.

Аннотация: В данной статье рассмотрены теоретико-методологические основы развития аналитического мышления у будущих педагогов посредством гипотетико-дедуктивного метода, высокая эффективностьialectического метода в развитии аналитического мышления, развитие обучения использованию стилей мышления в представлен педагогический процесс в общепринятой форме.

Annotation: In this article, the theoretical-methodological foundations of the development of analytical thinking in future pedagogues through the hypothetical-deductive method, and the effectiveness of the dialectical method in the development of analytical thinking are considered high. In the pedagogical process, it is important to teach the common use of thinking styles.

Kalit so'z va iboralar: gipotetik-deduktiv, yangi taraqqiyot, tafakkur ko'nikmalari, innovation g'oyalar, mantiqiy fikrlash, individual sifatlar, barkamol inson, ta'lim standartlari, aqliy faoliyat turi, ilmiy-metodik.

Ключевые слова и фразы: гипотетико-дедуктивное, новое развитие, мыслительные способности, инновационные идеи, логическое мышление, индивидуальные качества, совершенный человек, образовательные стандарты, вид мыслительной деятельности, научно-методический.

Key words and phrases: hypothetical-deductive, new development, thinking skills, innovative ideas, logical thinking, individual qualities, perfect person, educational standards, type of mental activity, scientific-methodical.

Kirish (Введение/Introduction). Bugungi kunda bo'lajak pedagoglarning analitik tafakkurini rivojlanirishning asosiy maqsadi – yosh avlodni har tomonlama etuk, jamiyatimiz taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan barkamol insonlar etib shakllantirishdir. Barkamol inson o'zida ma'naviy va jismoniy etuklikni mujassam etadi.

Analitik tafakkur boshqa psixik jarayonlardan, unda qandaydir muammoli vaziyat mavjudligini ta'kidlaydi, uni hal qilib, qaysi bir kishining hissiy tajribadan chalg'itishi va muayyan amaliy yoki nazariy xulosalar chiqarishiga, bilim chegaralarini kengaytirishga qaror qilish xususiyatlari bilan farq qiladi. Tafakkur ko'pincha ijtimoiy amaliyotning tarixiy rivojlanish mahsuli, inson faoliyatining alohida nazariy shakli sifatida qaraladi. Tafakkur voqelikni nafaqat oddiy obrazlar, balki o'z navbatida, nazariy yo'l bilan olingan turli aloqalar, qonunlar sifatida aks ettiradi. Bu borada A.V.Brushlinskiy shunday yozgandi: "tafakkurning asl tabiat shundan iboratki, u doim qandaydir yangilikni mustaqil, doim ochiq holda kashf etadi. Avvalo tafakkurga ongli faoliyatning noma'lum mahsuli sifatida, unga darhol erishish mumkin emas. Boshqa tomondan, u keyingi faoliyatlar uchun juda zarurdir. Mazkur holatlar o'rtasidagi qarama-qarshiliklar o'zida ma'lum bir vazifa yoki muammoni izlovchi va keyin esa ularni hal etilishi yo'llarinig topilishini namoyon etuvchi psixik yangi hosilalar shakllanish jarayonida ifodalanadi. Mana shuning uchun tafakkur jarayon sifatida, oldindan tayyor va taqdim etiladigan bo'lmay, balki shakllantiruvchi jarayon bo'lib hisoblanadi.[1]

Analitik tafakkur inson idroki orqali his etib, qabul qilingan narsa va ma'lumotlar, bevosita aloqalar bilan amal qiluvchi uzviy bog'liqlikda tavsiflanadi; to'g'ridan-to'g'ri manipulyasiya qilingan narsalar bilan uzviy aloqador; aslida, mumkin bo'limgan amaliy harakatlarsiz, oldinga qo'yilgan vazifalarni

hal etishdan iborat. Tafakkurning mazkur shakli, eng avvalo, amaliy vazifalarni bajarishga qaratiladi. Uning murakkablashishiga ko‘ra asta-sekin bajariladigan harakatlar tashqi ko‘rgazmali sharoitlarda namoyon bo‘ladi. Bunda harakat ichki muhitining yaratilishi sodir bo‘ladi, elementlar o‘rtasidagi munosabatlar sxemali ko‘rinish tusini oladi.

Bizning tadqiqotimizda bo‘lajak pedagoglarning analitik tafakkurini rivojlantirishni diagnostika qilish tamoyillarini metodologik asoslash quyidagilarga tayanadi:

1) analitik tafakkurni rivojlantirishni yuqori darajadagi yaxlit psixologik tizimni o‘zida aks ettiruvchi shaxs sifati tarzida ko‘rib chiqish;

2) shaxsni rivojlantiruvchi sifati tarzida uni analitik tafakkurini rivojlantirishning dinamik nazariyasi bilan bog‘liqligini asoslash.

Mazkur asoslarga tayangan holda, bo‘lajak o‘qituvchilarning analitik tafakkurini rivojlantirishni tashxis etishga doir quyidagi eng muhim yondashuvlarni ajratib oldik:

1) shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv. Tekshiruv o‘z-o‘zini anglashning o‘ziga xosligi, emosional-irodaviy va kommunikativ sohalarning rivojlanish darajalari bilan bog‘liqlikda shaxs rivoji uchun xizmat qiladigan o‘zaro aloqador sifatlarning yaxlit tizimini o‘rganishga yo‘naltirilgan;

2) dinamik yondashuv (o‘rganishning uzoq muddat davom etishi, sinaluvchilarni turli vaziyatlardagi xulq-atvorini o‘rganish uchun vaqt-vaqt bilan kuzatishlarga murojaat qilish, uning rivojlanishi dinamikasini o‘rganish, psixologik to‘siqlarni va uni bartaraf etish vositalarini aniqlash). Dinamik yondashuv asosida diagnostik tanlovdan diagnostik rivojlantirishga o‘tish paraligmasini almashtirish bilan shartlangan analitik tafakkurni rivojlantirishning dinamik nazariyasi yotadi;

3) tekshiruv natijasi sifatida nafaqat insonning umumiy va psixik rivojlanish darajasi, umumiy va maxsus qobiliyatlarining rivojlanishi, analitik tafakkurini rivojlantirish darajasini aniqlash, balki uning potensial imkoniyatlarini aniqlashga yo‘naltirilgan shaxsiy rivojlanishini proqnoz qilish masalasini taddiq etishga asoslangan prognostik yondashuv.

Analitik tafakkurini rivojlantirishning ko‘po‘lchamli hodisa ekanligi va uni baholashning murakabligini tasdiqlashga imkon beradigan analitik tafakkurni rivojlantirish turlarining tasniflash mezonlarini hisobga olish asosida talabalarning analitik tafakkurini rivojlantirishni to‘g‘ri baholay olish mumkin.

Tadqiqot natijalarining ko‘rsatishicha, psixodiagnostik testlar ko‘rsatkichlari asosida analitik tafakkurni rivojlantirish talabalarni tanlab olish ilmiy nuqtai nazardan to‘liq o‘zini oqlamaydi, chunki intellekt va kreativlikni aniqlash testlari analitik tafakkurini rivojlantirishni tashxis etishning maqbul vositasi bo‘lib xizmat qilmaydi.

Aynan pedagogik nuqtai nazardan analitik tafakkuri rivojlangan talabalarni tanlab olish axloqiy jihat bilan uyg‘unlikda ko‘rib chiqilishi lozim. Talabani “analitik tafakkuri rivojlangan” va “analitik tafakkuri rivojlanmagan”ga qat‘iy ajratish uning kelgusi faoliyatiga o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatmasdan qolmaydi. Ana shu sababli tadqiqot natijalari asosida talabalarning qaysi faoliyat sohasiga analitik tafakkurini rivojlantirishni aniqlashda yuqorida keltirilgan me’zonlarga asoslanib monitoring qilinishi lozim, degan xulosaga kelindi.

Ana shu sababli tadqiqot jarayonida analitik tafakkuri rivojlangan talabalarni aniqlashning o‘zining maqsad sifatida belgilanmasligi, talabalarda analitik tafakkurni rivojlantirishni aniqlash va ularni tarbiyalash bilan aloqadorlikda amalga oshirilishi lozim. Tajriba-sinov ishlari jarayonining bosh maqsadi sifatida bo‘lajak pedagoglarning intellekti va shaxsiy rivojlanishi uchun zarur pedagogik shart-sharoitlar yaratish bilan analitik tafakkurini rivojlantirishni aniqlash tarzida asoslandi.

Tadqiqot natijalari analitik tafakkuri rivojlangan talabalarni aniqlashning mutlaq yagona metodi mavjud emasligini, qator yo‘nalishlarda kuzatish-o‘rganish ishlarini amalga oshirish lozimligini ko‘rsatdi:

Boshlang‘ich bosqichda talabalarni ancha vaqtidan bo‘yon va yaxshi biladigan professor-o‘qituvchi va tuyltori bilan so‘rovnama o‘tkazish zarur. Shuni alohida ta‘kidlab o‘tish joizki, analitik tafakkuri rivojlangan talabalarni aniqlashning dastlabki bosqichida professor-o‘qituvchilarning fikrlariga tayanish baholash tizimining majburiy komponenti sifatida Angliya, AQSH, Singapur kabi davlatlarda o‘zining yaxshi samarasini bergen.[2]

Shuningdek, analitik tafakkuri rivojlangan talabalarni aniqlashning dastlabki bosqichida talabalardagi ehtiyojlarni aniqlashga imkon beruvchi psixologik metodlar, nazorat-baholash turidagi metodikalardan foydalanish maqsadga muvofiq;

Analitik tafakkuri rivojlangan talabalarni aniqlashda intellektual testlardan foydalanish ham yaxshi samara berishi mumkin. Faqat intellektual testlarni o‘tkazish yuqori malakali pedagog-psixologlar tomonidan amalga oshirilishi lozim;

Talabalarning analitik tafakkurini rivojlantirishni aniqlashda o‘quv loyihalari ham kutilgan natijaga erishish imkonini beradi. Faqat o‘quv loyihalarini tayyorlashda talabalarning individualligini to‘liq ta‘minlash, sinchkovlik va mas’uliyat bilan ish olib borishni talab etiladi;

O‘rganishlarimiz natijalari analitik tafakkuri rivojlangan talabalarni aniqlashda ota-onalar o‘rtasida ham so‘rovnama o‘tkazish maqsadga muvofiqligini ko‘rsatdi. Garchi ayrim holatlarda ota-onalarning o‘z farzandlari haqidagi fikrlar sub’yektiv tavsifga ega bo‘lsa ham, mazkur metod talabalarning oilaviy sharoitda nimalar bilan shug‘ullanishni yoqtirishlarini aniqlash imkonini beradi.

Tahlillar asosida analitik tafakkuri rivojlangan talabalarni aniqlash bir nechta bosqichlarda amalga oshirilishi va har bir bosqichda turli pedagogik-psixologik diagnostik metodlardan foydalanish lozim degan xulosaga kelindi. Biroq albatta analitik tafakkuri rivojlangan talabalar bilan ishslash tizimini takomillashtirish va o‘qitish sifatini oshirish haqida gap borganda ularni qo‘llab-quvvatlash va to‘g‘ri yo‘naltirish masalasiga alohida e’tibor qaratish lozim.

Britaniyalik mutaxassislarning fikricha, “ijod (kreativlik) – analitik tafakkurini rivojlantirishning eng muhim unsuri hisoblanadi va analitik tafakkuri rivojlanganlikning barcha turlari ijodiy komponentdan alohida qaralishi mumkin emas”.[3] Angliyada ta’limni tabaqlashtirishning ikkita – ichki va tashqi turi mavjud. Ular o‘zaro uyg‘unlikda o‘quv jarayonining yuqori samaradorligini ta’minlashga xizmat qiladi.[4] Tashqi tabaqlashtirish o‘quv jarayonini tashkil etishning xilma-xil maxsus shakllarida o‘z aksini topadi: test va suhbat asosida qobiliyat darajasi bo‘yicha talabalarni potoklarga taqsimlash; ta’limning ma’lum bir bosqichida talabalarni o‘quv fanlariga qobiliyatiga ko‘ra guruhlarga taqsimlash; “aralash” qobiliyatli guruhlarda o‘qitish va h.k. Ichki tabaqlashtirish talabalarning bilish faoliyati usullariga muvofiq alohida fanlar bo‘yicha vaqtinchalik guruhlarga birlashishida aks etadi. Ichki va tashqi tabaqlashtirishni amalga oshirishga doir tahlil asosida mazkur jarayon talabalarning bilish faolligini oshirish, o‘zaro bir-birini nazorat qilish va mas’uliyatni anglash, hamkorlikda o‘qitish elementlarini qo‘llash asosida mustaqil ta’limning variativligini ta’minlash imkonini berishi haqidagi xulosaga kelindi.

2.2-shakl.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda analitik tafakkurini rivojlantirish tizimi

№	Bosqich	Amalga oshiriladigan ishlar mazmuni
1.	I bosqich – moslashuvli yo‘naltiruvchi	<ul style="list-style-type: none"> - talabalarda analitik tafakkurini rivojlantirishga doir kreativ motivasiyani shakllantirish; - talabalarda analitik tafakkurini rivojlantirishga doir o‘quv-tadqiqotchilik faoliyatning o‘ziga xosliklari bilan tanishish; - gipotetik-deduktiv yondashuv bo‘lajak o‘qituvchilarining analitik tafakkurini rivojlantirishga doir faoliyatining muhim komponenti ekanligini anglash; - bo‘lajak pedagoglarning aqliy salohiyati, mantiqiy fikrlashi, ilmiy dunyoqarashini shakllantirishga doir ma’lumotlarni o‘zlashtirish. - bo‘lajak o‘qituvchilarda analitik fikrlashga ijobiy munosabatni qaror toptirish; - talabalarda analitik tafakkurni rivojlantirishga doir kreativ yondashuv, kreativ ko‘nikma va qobiliyatlarni jadal shakllantirish; - ijtimoiy-gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy, ixtisoslik fanlaridagi bilimlarni o‘zlashtirish asosida talabalarning analitik tafakkurini rivojlantirishga doir kompetentlikni qaror toptirish; - bo‘lajak o‘qituvchining umumkasbiy va o‘quvchilar bilan ishslashga yo‘naltirilgan analitik va kreativ sifatlarni rivojlantirish, diagnostik natijalar asosida o‘zining kasbiy rivojlantirish yo‘nalishlarini aniqlash.
2.	II bosqich – tayanch	<ul style="list-style-type: none"> - talabalarda analitik tafakkurini rivojlantirishga doir kreativ motivasiyani shakllantirish; - o‘quv-kasbiy vazifalarni hal etishga yo‘naltirilgan kreativ savodxonlik, kreativ ko‘nikma va qobiliyatlarni maqsadga yo‘naltirilgan tarzda qo‘llash va faollashtirish; - analitik tafakkurni rivojlantirishning kreativ shakl, metod, vosita va texnologiyalarini amaliyotda qo‘llash va o‘z faoliyatini korreksiyalash.
3.	III bosqich – kreativ-prodiktiv	<ul style="list-style-type: none"> - talabalarning analitik tafakkurini rivojlantirishga doir barqaror motivlarni qaror toptirish; - o‘quv-kasbiy vazifalarni hal etishga yo‘naltirilgan kreativ savodxonlik, kreativ ko‘nikma va qobiliyatlarni maqsadga yo‘naltirilgan tarzda qo‘llash va faollashtirish; - analitik tafakkurni rivojlantirishning kreativ shakl, metod, vosita va texnologiyalarini amaliyotda qo‘llash va o‘z faoliyatini korreksiyalash.

Bugungi knuda bo‘lajak pedagoglarda analitik tafakkurini rivojlantirishning innovasion

mexanizmlarini ishlab chiqish pedagogika fanining dolzarb muammolardan biri bo'lib, ular ta'limgarayonini tashkil etishlari, ta'limgarayoni ishtirokchilarining bilim darajalariga qo'yiladigan talablarni yaxshi bilishlari, ta'limgarning me'yoriy asoslarini o'zlashtirgan bo'lishlari, o'z fanlaridan chuqurlashtirilgan bilim beradigan texnologiyalarni egallagan bo'lishlari talab etiladi. Buning uchun bo'lajak o'qituvchilar o'z fanlaridan jadallashtirilgan ta'limgarayoniga yo'naltirilgan o'quv kurslari mazmunini chuqur o'zlashtirishlari va uni boyitish ko'nikmalariga ega bo'lishlari lozim.

Bo'lajak pedagoglarning analitik tafakkurini rivojlantirish ta'limgarning shaxsga yo'naltirilgan yondashuvini samarali tatbiq etish, ularning iste'dodi va qobiliyatini ro'yobga chiqarish uchun shart-sharoit yaratishni talab etadi. Mazkur jarayonda pedagoglarning dars jarayoniga an-anaviy yondashuvlardan chetlab faoliyat olib borishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Bo'lajak kadrlarni mustaqil, mas'uliyatlari, ijtimoiy jihatdan safarbarlikka moyil shaxs sifatida shakllantirish ularni muvaffaqiyatli ijtimoiylashtirish va mehnat bozorida munosib o'rin topishiga tayyorlash uchun ularda ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish, o'z faoliyatlarini aniqlash va rivojlantirishga odatlantirish lozim. Bunday yondashuvni amalga oshirish uchun o'quv-bilish jarayonida talabalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash muhim pedagogik ahamiyatga ega. Bunda talabalarning moddiy borliq, atrofdagilar va o'z-o'ziga bo'lgan munosabatini o'rganish muhim o'rin egallaydi.

Xulosa qilganda, bo'lajak pedagoglarning intellektual rivojlanish jarayonini pedagogik jihatdan qo'llab-quvvatlashda ularning munosabatlarini sinchiklab o'rganish, tuzatish, tiklash va rivojlantirish zarur. O'quv-tarbiya jarayonida talabalarni qo'llab-quvvatlashning asosiy maqsadi, ularning intellektual, jismoniy, ma'naviy-madaniy va ijtimoiy jihatdan bir maromda rivojlanishlarini ta'minlashdan iborat. buning uchun esa, o'quv-bilish jarayonida talabalar faoliyatini yaxshilash maqsadida, muntazam tarzda rivojlantiruvchi didaktik harakatlarni tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Вяткин Л.Г. Развитие творческих способностей учащихся. // Актуальные проблемы развития личности учащегося. - Саратов: Изд-во СГУ, 1995. -С. 32-
2. Сухин И.Г. 800 новых логических и математических головоломок. -СПб.: Союз, 2001. -208 с.
3. Колмакова Н.А. Формирование готовности студентов педвуза к развитию логического мышления младших школьников (на примере математических дисциплин): Автореферат дис. ... канд. пед. наук. - Шадринск: Изд-во ЩГПИ,2000. -22с.
4. Овчинникова Т.Н. Личность и мышление ребенка: диагностика и коррекция / Овчинникова Т.Н. Научно-внедренческая лаборатория психопедагогики образования. - М.: Акад. проект, 2002. - 188 с.
5. Выготский Л.С. Педагогическая психология. - М.: Педагогика, 1996. -394 с.
6. Божович Л.И. Отношение школьников к учебе как психологическая проблема // Божович Л. И. Проблемы формирования личности. -М: "Институт практической психологии ", Воронеж: НПО «МОДЭК», 1995. - С. 55-107.
7. Коляда Е.П. Развитие логического мышления учащихся-подростков на основе межпредметных задач: Автореф. дис. ... канд. пед. наук: (Математика, информатика). Саратов: из-во Сарат. гос. ун-т им. Н. Г. Чернышевского, 1996. -15 с.
8. Гетманова А.Д. Логика: учебник для педагогических учебных заведений. - М.: Новая школа, 1995. - С. 7.